



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№12  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,  
2-dekabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari .....                | 26  |
| <b>Xuseynova Abira Amanovna</b>                                                                                                                             |     |
| Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....                      | 31  |
| <b>Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna</b>                                                                                                                       |     |
| Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....              | 35  |
| <b>Abdurasulova Gulrux Habibullayevna</b>                                                                                                                   |     |
| Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari .....                                                                  | 40  |
| <b>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinov Elyorjon qizi</b>                                                                                 |     |
| Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...                                                   | 44  |
| <b>Asatova Dildora Aslamovna</b>                                                                                                                            |     |
| Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....                                                                       | 49  |
| <b>Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna</b>                                                                                                                   |     |
| Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi .....                                                    | 52  |
| <b>Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna</b>                                                                                                                 |     |
| The Concept of Symbols in Linguoculturology .....                                                                                                           | 56  |
| <b>Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi</b>                                                                                                                      |     |
| Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....                                                                | 59  |
| <b>Mirxalilova Nargiza Akbarovna</b>                                                                                                                        |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish .....                                             | 63  |
| <b>Mitaliboyeva Dildora</b>                                                                                                                                 |     |
| Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish .....                            | 66  |
| <b>Nartayeva Shahnova Yulchibayevna</b>                                                                                                                     |     |
| Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....       | 71  |
| <b>Normatova Nilufar Komilovna</b>                                                                                                                          |     |
| Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....       | 76  |
| <b>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</b>                                                                                                             |     |
| Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish .....      | 80  |
| <b>Qodirov Jurabek Mamatsimonovich</b>                                                                                                                      |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model ..... | 83  |
| <b>Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi</b>                                                                                                                    |     |
| "Sab'ai sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar .....                                                                             | 87  |
| <b>Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi</b>                                                                                   |     |
| Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri .....                                                 | 91  |
| <b>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna</b>                                                                                        |     |
| Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....                                | 95  |
| <b>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</b>                                                                                                                |     |
| Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish .....                                                                 | 99  |
| <b>Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</b>                                                                                                                    |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli .....                                                                          | 102 |
| <b>Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi</b>                                                                                                                |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....                                      | 106 |
| <b>Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo</b>                                                                                                |     |



|                                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili .....            | 109 |
| <b>Xusanov Samariddin Maxmadaminovich</b>                                                                                        |     |
| Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari .....                               | 112 |
| <b>Yarashev Jo'rabek To'rayevich</b>                                                                                             |     |
| Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки .....                                                              | 117 |
| <b>Габдульманова Ильнура Минисламовна</b>                                                                                        |     |
| Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов ..... | 119 |
| <b>Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи</b>                                                                                              |     |
| Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....         | 124 |
| <b>Уразова М. Б., Усманова У. Б.</b>                                                                                             |     |
| Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..                                       | 130 |
| <b>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</b>                                                                                            |     |
| Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....                             | 135 |
| <b>Юсупова Зулайхо Бахром кизи</b>                                                                                               |     |

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MOTORIKASINI RIVOJLANTIRISHNING STANDART MODELI

Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)  
fakulteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida bolalar motorikasini maqsadga yo’naltirilgan va uzviy rivojlantirishga qaratilgan standart modellardan foydalaniladi. Ushbu modellarda yosh xususiyatlariga mos ravishda motorika ko’nikmalarini shakllantirish, mustahkamlash va bosqichma-bosqich takomillashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayonlar tartibga solinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda motorika rivojlanishining standart modeli – uning asosiy tamoyillari, bosqichlari, mazmuni, metodlari hamda samaradorligining ilmiy tahlili bayon etiladi.

**Kalit so’zlar:** mayda qo’l motorikasi, psixologik, neyropsixologiya, logoped, defektolog.

**Abstract:** This article uses standard models aimed at the purposeful and integrated development of children’s motor skills in the preschool education system. These models regulate pedagogical processes aimed at the formation, consolidation, and gradual improvement of motor skills in accordance with age characteristics. The standard model of motor development in preschool children – its basic principles, stages, content, methods, and scientific analysis of its effectiveness are described.

**Key words:** fine motor skills, psychological, neuropsychology, speech therapist, defectologist.

**Аннотация:** В статье рассматриваются типовые модели, направленные на целенаправленное и комплексное развитие двигательных навыков детей в системе дошкольного образования. Эти модели регламентируют педагогические процессы, направленные на формирование, закрепление и поэтапное совершенствование двигательных навыков в соответствии с возрастными особенностями. Описана типовая модель развития двигательных навыков у детей дошкольного возраста – её основные принципы, этапы, содержание, методы и научный анализ её эффективности.

**Ключевые слова:** мелкая моторика, психология, нейropsихология, логопед, дефектолог.

## KIRISH

Har bir bola o’zining noyob rivojlanish yo’lini bosib o’tadi, biroq maktabgacha yosh davri bu yo’lda eng muhim va asosiy pog’onalardan biridir. Aynan shu yoshda bolaning butun organizmining, shu jumladan uning harakatlanish qobiliyatlarining, ya’ni motorikasining rivojlanishi kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli ushbu murakkab jarayonni tizimli va ilmiy asosda tashkil etishga qaratilgan. Ushbu model bola harakatlanish orqali dunyoni o’rganishi, o’zini anglashi va atrof-muhit bilan faol aloqada bo’lishi tamoyiliga asoslanadi. U nafaqat jismoniy mashqlarni, balki o’yinlar, sensorli faoliyatlar va kundalik tadbirlarni o’z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvni taklif etadi. Modelning asosiy maqsadi – bolalarda harakatlar nazoratini va koordinatsiyasini shakllantirish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mayda qo’l motorikasi – insonning qo’l va oyoqlarning barmoqlari hamda kaftlar bilan aniq, mayda harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan koordinatsiyalangan harakatlar to’plami bo’lib, nerv, mushak va suyak tizimlarining, shuningdek ko’ruv tizimining muvofiqlashtirilgan faoliyati asosida amalga oshiriladi. Mayda qo’l motorikasi turli xil harakatlarni o’z ichiga oladi: elementar imo-ishoralardan (masalan, ob’ektlarni qo’lga olish) tortib juda nozik, mayda harakatlargacha, masalan, insonning qo’l yozuvi bilan bog’liq faoliyatlarga qadar. Miyaning motor proektsiya maydonining uchdan bir qismini qo’lning proektsiyasi egallaydi va u nutq motor zonasining proektsiyasi yonida joylashgan. Barmoqlarning harakati ustida ishlash markaziy asab tizimining yetilishiga ijobiy ta’sir etadi, bu ayniqsa bolaning nutqini rivojlantirishini jadallashtirishda namoyon bo’ladi.



V. M. Bekhterev qo'l harakatlari doimo nutq bilan chambarchas bog'liqligini va uning rivojlanishiga ta'sir etishini qayd etgan.

I. P. Pavlov nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liqligi sababli, ikkala qo'l funksiyalarini rivojlantirish har ikki yarim sharda nutqning "markazlari"ning rivojlanishini ta'minlashini va intellektual rivojlanishda afzallik berishini belgilagan.

T. P. Xrizmanning tadqiqotlari ritmik harakatlarning fiziologik roli miyaning funksional holatiga o'ziga xos tonik ta'sir ekanini va miya yarim sharlarining ish samaradorligini turg'un ravishda oshirishga yordam berishini ko'rsatgan.

L. V. Fominaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolalarda barmoqlar harakati ustida ishlash tovushlar artikulyatsiyasini rivojlantirish samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirish modeli bir qator ilmiy konsepsiyalar va metodologik yondashuvlarga tayangan holda shakllangan. Jumladan: inson rivojlanishining yosh davrlari nazariyasi. Ushbu nazariya har bir yosh bosqichiga xos jismoniy va psixologik o'zgarishlar dinamikasini o'rganadi. Maktabgacha davr (3–7 yosh) motorik ko'nikmalarining eng jadal rivojlanish bosqichi bo'lib, harakatlarning aniqligi, muvofiqligi va koordinatsiyasi sezilarli darajada kuchayadi. Bu davrda, ayniqsa, harakatlarni boshqaruvchi miya markazlarining faol o'sishi kuzatiladi. Fiziologik va neyropsixologik yondashuv. Ushbu yondashuv motorikaning nerv tizimi, muskul-skelet tizimi va miya faoliyati bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi.

Harakat ko'nikmalarining rivojlanishi miya po'stlog'i, miyacha va bazal gangliyalarning faoliyati hamda ular orasidagi neyron aloqalarning mustahkamlanishi bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa mayda motorikaning shakllanishi nutq va kognitiv faoliyatga mas'ul miya zonalarining faollashuvini ta'minlaydi.

Faoliyat nazariyasi. A. N. Leontyev va L. S. Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariyaga ko'ra, inson rivojlanishi uning faoliyati – o'yin, o'qish va oddiy mehnat turlari orqali ro'y beradi. Motorika ham aynan amaliy faoliyat jarayonida, xususan o'yin faoliyati orqali eng samarali rivojlanadi va takomillashadi. Sensor integratsiya nazariyasi. Mazkur nazariya tashqi muhitdan kelayotgan sezgi axborotlari (ko'rish, eshitish, taktil, vestibulyar, proprioseptiv)ning miya tomonidan qayta ishlanish jarayoni va ularga mos harakat reaksiyalarining shakllanishini tushuntiradi. Sensor axborotlarning to'g'ri integratsiyasi bolada harakatlarni samarali boshqarishning asosiy shartlaridan biridir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Motorik rivojlanishni baholash va monitoring qilish Motorik rivojlanishni standart yondashuv asosida baholash jarayoni bolalarning harakat funksiyalarini muntazam ravishda kuzatish, tahlil qilish va zarur hollarda korrektsiyalashni o'z ichiga oluvchi tizimli faoliyatdir. Diagnostika metodlari bolalarning yirik va mayda motorika ko'nikmalarini baholash maxsus standartlashtirilgan testlar, pedagogik kuzatuvlar hamda harakat faoliyatining sifat jihatdan tahlili orqali amalga oshiriladi, bu vositalar bolaning motorik kamolot darajasini aniqlash, harakat jarayonidagi kuchli va rivojlanishga muhtoj jihatlarni belgilash imkonini beradi. Rivojlanish xaritalari har bir tarbiyalanuvchi uchun individual rivojlanish kartasining yuritilishini nazarda tutib, unda bolaning motorika bo'yicha erishgan natijalari, bosqichma-bosqich o'zgarishlari va qo'shimcha pedagogik yordamga ehtiyojlari muntazam qayd etib boriladi, bu esa monitoring jarayonining uzluksiz va aniq olib borilishini ta'minlaydi.

Rivojlanishdagi kechikishlarni aniqlash jarayonida agar diagnostika natijalarida bolaning motorik rivojlanishi yosh normativlariga mos kelmasa, sezilarli kechikishlar yoki muvofiqlashtirishdagi buzilishlar kuzatilsa, nevropatolog, logoped, defektolog yoki jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassis kabi tegishli mutaxassislarning konsultatsiyasiga murojaat qilish tavsiya etiladi, chunki vaqtida aniqlangan muammolar samarali korrektsiya uchun asos yaratadi. Korrektsion-rivojlantiruvchi ishlar aniqlangan rivojlanishdagi og'ishlar asosida individual yoki guruhli mashg'ulotlarni tashkil etishni nazarda tutib, bunday mashg'ulotlar harakat funksiyalarini tiklash, muvofiqlashtirishni kuchaytirish, barmoqlar va mushaklar faoliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil va natijalar harakatlarni bajarishda o'zini nazorat qilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tish, harakatni eslab qolish, to'xtab qolish (tormozlanish) harakatlarini, harakatlar koordinatsiyasini statik holatda va harakatlar koordinatsiyasi o'zgarishini, harakat tempini hamda motorik sezgirlikni tekshirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish ularning tafakkurini kuchli rivojlantirishga zamin yaratishi ko'plab psixolog va pedagoglar tomonidan ta'kidlangan. Masalan, M. I. Koltsova, Ye. I. Isenina, A. V. Antakova-Fomina va boshqalar mayda qo'l motorikasining rivojlanganligi bolalar nutqining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlasalar, P. Losev mayda qo'l motorikasi va barmoqlar harakatining mutanosibligi bolalarning maktabgacha yoshda to'g'ri rivojlanishining eng muhim masalalaridan biri ekanini qayd etadi.



N. S. Jukova, Ye. M. Mastjukova, T. B. Filecheva, S. I. Bot va boshqalarning maxsus adabiyotlarida esa mayda qo'l motorikasini rivojlantirish usullari orqali nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar berilgan.

Shuningdek, italiyalik pedagog Mariya Montessori o'zining pedagogik qarashlaridan kelib chiqib bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish, ularni his qilishga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi; bolalarda sensorika va motorikani rivojlantirish kichkintoylarda o'zish va hisoblash ko'nikmasini shakllantiradi. Montessori metodikasining asosiy mohiyati bolada mustaqil faoliyat orqali shaxsiy imkoniyatlarni namoyon qilishga sharoit yaratish va yordam berishdan iborat bo'lib, Montessori materiallari kichkintoylarda mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, bolada ichki kuchning rivojlanishiga va shaxsiy sifatlarning shakllanishiga turtki beradi. Bundan tashqari, bolada atrof-muhit to'g'risidagi tasavvurlar tizimlashtiriladi; ta'lim jarayonida tarbiyachining diqqat markazida kichkintoyning individual va ijtimoiy-hissiy ehtiyojlarini qondirish nazarda tutilishi lozim. Mashg'ulot va o'yinlar uchun tanlangan didaktik materiallar bolalarda motorika (harakat) va sensorika (sezgi)ni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur; bolaning mustaqil harakat qilishi natijasida uning ichki kuchlari erkinlashadi va asta-sekin kattalar yordamisiz ham o'zi bajara olish ko'nikmasiga ega bo'lib boradi.

Mayda motorika tug'ilgan paytdanoq rivojlana boshlaydi:

- dastlab go'dak o'z qo'llarini o'rganadi, so'ng ularni boshqarishga o'tadi;
- buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat ikkita (katta va ko'rsatkich) barmog'i bilan oladi;
- so'ngra bolaning qoshiq, qalam, mo'yqalam kabi buyumlarni to'g'ri ushlashiga o'rgatiladi.

Mayda motorikani rivojlantirish uchun ko'plab mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlar mavjud bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: barmoq o'yinlari, mayda buyumlar bilan bog'liq o'yinlar, shakl yasash va rasm chizish, barmoqlarni massaj qilish. Qog'oz yirtish mashqi 7 oyni to'ldirgan bolalarga mos bo'lib, kichkintoyga bir necha varaq yumshoq rangli qog'oz beriladi; u qog'ozni avval ushlab ko'radi, qo'llarida aylantiradi va yirtadi, bu esa unga katta zavq bag'ishlaydi. Sahifa varoqlash esa bir yoshdan so'ng qog'oz yirtish o'rniga rasmlar ko'p bo'lgan kitobcha yoki jurnal sahifalarini varaqlash shaklida o'tkazilishi mumkin.

Munchoqlar bilan o'ynash bolalar uchun juda yoqimli va foydali mashq bo'lib, buning uchun kattalar turli o'lcham va shakldagi munchoqlardan iborat taqinchoqlarni taqib qo'yishi kifoya; go'dak ularni zavq bilan ushlay boshlaydi. Bir-biriga kiruvchi kosachalar yordamida minoralar qurish yoki ularni bir-birining ichiga joylashtirish mumkin bo'lib, bu o'yin bolada buyumlarning o'lchami haqidagi tushunchani shakllantiradi.

Qumda rasm chizish mashqida esa patnisga qum sepilib, bolaning barmog'i kattalarning qo'li yordamida qum bo'ylab yurgiziladi; chizish chiziq, to'g'ri burchak va doira kabi oddiy shakllardan boshlanib, asta-sekin murakkablashtiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning motorik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan standart model – bu bolalarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta'minlovchi ilmiy asosga ega, tizimli va amaliy mazmundagi pedagogik yondashuvdir. Mazkur model bolaning yosh xususiyatlarini, individual rivojlanish sur'atlarini hamda psixofiziologik ehtiyojlarini chuqur tahlil qilgan holda, uning jismoniy, intellektual va ijtimoiy-emotsional kamolotiga kompleks ta'sir ko'rsatishni ko'zda tutadi. Yirik va mayda motorika ko'nikmalarining uzviy, izchil rivojlanishi bolaning umumiy jismoniy salomatligini mustahkamlashi bilan birga, kognitiv jarayonlar – nutq, tafakkur, xotira, diqqat va idrokni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Harakat faoliyatining takomillashuvi o'z navbatida maktabga psixofiziologik tayyorgarlikni kuchaytirib, bolada o'quv faoliyatiga ijobiy munosabat hamda mustaqillikning shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu modelning samarali qo'llanilishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, rivojlantiruvchi o'yinlar, motorik mashg'ulotlar majmuasi, interaktiv metodlar va muhitni pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etishni talab qiladi. Shu bilan birga, malakali, bolalarga individual yondashadigan, metodik bilimga ega va ijodkor tarbiyachilarning roli beqiyosdir.

Ota-onalar bilan uzviy hamkorlikda olib borilgan pedagogik faoliyat har bir bolaning shaxsiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, uning jismoniy va intellektual rivojlanishini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Maktabgacha yoshda motorik rivojlanishga qaratilgan e'tibor – bu nafaqat bolaning jismoniy rivojlanishiga investitsiya, balki kelajak avlodning tafakkur salohiyati, o'quv motivatsiyasi va umuman jamiyatning intellektual va ijtimoiy barqarorligiga qaratilgan uzoq muddatli strategik sarmoyadir. Shu sababli motorik rivojlanishni tizimli ravishda qo'llab-quvvatlash kelajakda barkamol, faol, ijodkor va sog'lom shaxslarni tarbiyalashda asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (Maktabgacha ta'lim tizimining umumiy huquqiy asosi). <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari". (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, bolalar rivojlanishining yosh me'yorlari va talablarining asosiy hujjati).
3. Vigotskiy, L. S. Detskaya psixologiya. – Moskva: Izdatelstvo AST, 2004. (Bolalar rivojlanishi va faoliyat nazariyasining klassik asari).
4. Gallahue, D. L., Ozmun, J. C., Goodway, K. M. Understanding Motor Development: Infants, Children, Adolescents, Adults. – McGraw-Hill, 2011. (Motorika rivojlanishining yosh bosqichlari bo'yicha fundamental xalqaro darslik).
5. Shumway-Cook, A., Woollacott, M. H. Motor Control: Translating Research into Clinical Practice. – Lippincott Williams & Wilkins, 2012. (Motorika nazorati va uning rivojlanishi mexanizmlari).
6. Nishonova, S. N., Qodirova, R. M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU, 2009. (Maktabgacha ta'limning umumiy metodik asoslari, jismoniy rivojlanish bo'limlari).
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti (hozirgi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi) – [uzedu.uz](http://uzedu.uz). (Maktabgacha ta'limga oid yangi qonun hujjatlari, dasturlar va tavsiyalar).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.